



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNING O'RNI
VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI

Axmetova Nasiba Axmetovna

Student of Tashkent State University of Economics

Annotatsiya: Ushbu tezisda O'zbekiston iqtisodiyotida kichik va o'rta biznesning o'rni, rivojlanish imkoniyatlari va ularning iqtisodiy barqarorlikka qo'shayotgan hissasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda kichik va o'rta bizneslar tomonidan yangi ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va ishsizlikni kamaytirishdagi roli hamda pandemiya davrining ularning samaradorligiga ta'siri o'rganiladi. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston kabi Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi kichik va o'rta biznes subyektlarining iqtisodiyotga qo'shgan hissasi o'rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari kichik va o'rta bizneslarni rivojlantirishning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: kichik va o'rta biznes, iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari, ishsizlik, pandemiya ta'siri, iqtisodiy barqarorlik, tahlil, O'zbekiston, Markaziy Osiyo, iqtisodiyotga hissa, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish:

Kichik va o'rta biznes — iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning o'rnini tahlil qilishda, asosan, ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va savdo sohalarini o'z ichiga olgan korxonalar nazarda tutiladi. Ular ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi va milliy iqtisodiyotning o'sishiga hissa qo'shadi. **Kichik biznes** – odatda bir nechta ishchi o'rinlarini yaratadigan, kichik hajmdagi ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish faoliyatini amalga oshiradigan korxonalardir. Ular ko'pincha oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyat yuritadi. **O'rta biznes** – kichik biznesdan kattaroq o'lchamdagi korxona bo'lib, unda ko'proq ishchilar va yirikroq moliyaviy resurslar mavjud. O'rta biznes yirik korxonalarning kichik versiyasi hisoblanadi va ular ko'proq o'sish va kengayish imkoniyatlariga ega. O'zbekiston iqtisodiyotida kichik va o'rta biznesning o'rni va rivojlanish imkoniyatlari mavzusi juda dolzarb va muhim bo'lib, mamlakatning iqtisodiy o'sishiga katta hissa qo'shadigan soha hisoblanadi. Kichik va o'rta biznes iqtisodiyotning asosiy poydevorini tashkil etadi va iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni rivojlantirish, mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda katta rol o'ynaydi.

Kichik va o'rta bizneslarni rivojlantirish orqali ishsizlikni kamaytirishning samaradorliginio'rganish jarayonida bir qator muhim natijalarga erishildi. O'zbekiston iqtisodiyoti misolida kichik va o'rta bizneslar iqtisodiy barqarorlikka, ijtimoiy farovonlikka va ishsizlikning kamayishiga qanday hissa qo'shishini ko'rsatadigan natijalar tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kichik va o'rta bizneslar yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistondagi kichik bizneslar,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ayniqsa, qishloq joylarida va shaharlarda yangi ish o'rinlarini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Ma'lumotlarga ko'ra, 2019-2023 yillarda kichik va o'rta bizneslar hisobiga yaratilgan ish o'rinlari mamlakatdagi umumiy ish o'rinlarining 40% ni tashkil etgan. Bu esa, ishsizlik darajasini sezilarli darajada kamaytirish imkoniyatini yaratadi.

Natijalar va muhokama:

2018-yildan 2022-yilgacha O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotga qo'shgan hissasi 111 ming dollardan 74 ming dollargacha kamaygan. Bu pasayish tendensiyasi, asosan, COVID-19 pandemiyasining salbiy ta'siri bilan izohlanadi (1-rasm). Ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, pandemiya davridan keyin O'zbekistondagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining samaradorlik darajasi pandemiya oldingi davrga nisbatan tiklanishga boshladi.



1-rasm

Qozog'istonda bitta kichik va o'rta biznes subyektning iqtisodiyotga qo'shgan hissasi boshqa mamlakatlarga nisbatan past bo'lib, 2022-yilda bu ko'rsatkich 45 ming dollarni tashkil etdi. Biroq, Qirg'izistonda bitta kichik va o'rta biznes subyektning iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasi 2022-yilda 232 ming dollarni tashkil etib, Markaziy Osiyodagi eng yuqori natija sifatida qayd etildi.

Xulosa:

Tadqiqotda kichik va o'rta bizneslarning O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni va rivojlanish imkoniyatlari o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kichik va o'rta biznes subyektlari yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. 2019-2023 yillarda kichik va o'rta bizneslar hisobiga yaratilgan ish o'rinlari mamlakatdagi umumiy ish o'rinlarining 40% ini tashkil etgan. Pandemiya davri kichik va o'rta bizneslarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, hozirgi vaqtda bu sohaning tiklanish jarayoni davom etmoqda. Bundan tashqari, O'zbekistonning iqtisodiyotiga kichik va o'rta bizneslarning qo'shgan hissasi boshqa Markaziy Osiyo



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



mamlakatlari bilan taqqoslanganda sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda. Tadqiqot kichik va o'rta bizneslarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini yanada ochib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farhodjon o'g'li, T. R., & Komiljon o'g'li, H. J. (2025). ISHSIZLIKNI KAMAYTIRISH UCHUN KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH. *Страховой рынок Узбекистана*, 2(1), 41-42.
2. Xayrullayevich, A. S. (2025). O 'ZBEKISTONNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA KICHIK VA O 'RTA BIZNESNING ROLI. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (11), 675-685.
3. Haitovna, S. M., & Komiljon ogli, E. A. (2025). KICHIK VA ORTA BIZNESNING MILLIY IQTISODIYOTDAGI ORNI VA AHAMIYATI. *Modern education and development*, 18(3), 235-242.
4. Abdibositova, M. (2024). KICHIK VA O 'RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH: O 'ZBEKISTON-2030 STRATEGIYASINING AHAMIYATI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 3(12), 72-75.